

AXBOROT XATI

2023-yil 15-aprel kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Turkshunoslik fakulteti “Turk filologiyasi” kafedrası tomonidan “Turkiy xalqlar tili va madaniyati” mavzusidagi magistr va talabalarning an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani o’tkaziladi.

Anjuman yo‘nalishlari:

- Turk tili;
- Turkiy tillar tarixi;
- Turkiy xalqlar madaniyati;
- Turk va o‘zbek tilining qiyosiy tahlili;
- Turk adabiyoti;
- Turk va o‘zbek adabiyotining qiyosiy tahlili;
- Turkiy xalqlar adabiyoti.

Taqdim etiladigan maqolalar quyidagi tartibda rasmiylashtirilishi kerak:

- tezis matni MS WORD matn muharririda, Times New Roman shrifti, 14 yozuv o‘lchami kattaligida, 1,5 intervalda bo‘lishi va 3 betdan kam bo‘lmasligi lozim;
- tezis matnlari A4 hajmda, yuqoridan va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm joy qoldirib rasmiylashtirilishi kerak;
- Tezisning nomi bosh harflar bilan yoziladi.
- Muallifning ismi, sharifi tezis sarlavhasi ostida o‘ng tarafga yoziladi;
- Muallifning ismi, sharifi ostidan ilmiy rahbarning ismi, sharifi, ilmiy darajasi yoziladi;
- Taqriz talab etilmaydi.
- Annotatsiya, kalit so‘zlar (tezis qaysi tilda bo‘lsa, shu tilda beriladi) asosiy matndan oldin yoziladi.

Anjuman mavzusiga, ilmiy me‘yorlarga va texnik talablarga javob bermaydigan maqolalar qabul qilinmaydi.

Anjumanda ishtirok etish uchun tezislarni topshirish tartib-qoidalari:

Anjumanda qatnashish uchun maqolaning elektron shaklini 2023-yil 1-aprel kuniga qadar elektron shaklda yuborishingiz so‘raladi.

Email: turkiyot@gmail.com

Tel: +998977616556

Mas’ul shaxs: f.f.n., dots. Lola Aminova

Qabul qilingan maqolalar anjuman to‘plami sifatida chop etiladi.